

ALISHER NAVOIY “USTOZ – SHOGIRDLIK” HAQIDA (Alisher Navoi about "Teacher-Apprentice")

Hoshimjon Ahmedov

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

ahmedov_60@list.ru

Xurramova Maxliyo Bahodir qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti talabasi

xurramovamakhliyo@gmail.com

Annotatsiya.

Maqolada Navoiy qalamiga mansub “Majolis un-nafois” tazkirasidagi ustoz-shogirdlik an'analari mavzusi ko'tarilgan. Bugungi kunda ustoz va shogirdlikka qo'yilgan talab va munosabatlar qadimdan rivojlanganligiga alohida to'xtalangan. Bu mavzuga Alisher Navoiyning ijod va insoniylik nuqtai nazaridan yondashuvi yoritilgan.

Kalit so'zlar:

Alisher Navoiy ijodi, “Majolisun-nafois” tazkirasi, ustoz-shogirdlik an'anasi.

Annotation.

Foundation and belonging progress today in the article “Majolis un-nafois” tazkira master-disciple traditions, lit. Today, the master and his disciples, put into the particular requirements of the relationship and the development from ancient times.

Keywords:

Alisher Navoi's work, Majolisun-nafois tazkirasi, teacher-student tradition.

Muammoning qo'yilishi. Sharqshunos Y. E. Bertels o'zining “Navoiy” nomli risolasida [1. Bertels Y. E. Navoiy. T. 2015] daho ijodkorning sharq adabiyotidagi o'rnini XX asr boshlarida birinchilardan bo'lib isbot etgan edi. “Alisher Navoiy o'zbek adabiyotini yangi yuksak cho'qqiga ko'tardi. Uning adabiy merosi butun sharq adabiyotida ham munosib o'ringa ega.” [2. Abduqodir Hayitmetov. Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari. T. 1959, 9-bet].

Alisher Navoiy qalamiga mansub “Majolis un-nafois” tazkirasida ustoz va shogirdlik an'anasi, ularning estetik qarashlari, shogirdga qo'yiladigan talablar, ustozning talabchanligi haqida ham qarashlar aks etgan. [3. Alisher Navoiy. “Majolisun-nafois”. Mukammal asarlar to'plami, 13-tom. T. 1997]. “Navoiy “Majolisun-nafois”da shoirlarga xarakteristika berishda ularning hayotini, insoniy qiyofasini, ba'zi o'rinlarda taqdirini, moddiy ahvolini talqin etishga, binobarin, shoirning ijodi, hayotini zamon, siyosat, ijtimoiy voqealar bilan birga olishga, baholashga ham intiladi” [4. Suyima G'aniyeva. Alisher Navoiy. 123-bet]. Biz maqolada Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois” tazkirasidagi **“Ustoz-shogirdlik” an'anasi masalasini o'rgandik.**

Muammoning tadqiqi. “Majolisun-nafois” tazkirasining ayrim o'rinlariga diqqat qilamiz. Jumladan, “Hofizi Sa'd-Mir Qosim muridlaridandur. Chun loubolivash [5. beparvo, loqayd – “Navoiy asarlari lug'ati, T. 1972, 340-bet] va sho'xta'broq kishi erdi. Hiri shahrining lavand(dangasa, bekorchi, o'sha lug'at – 322-bet) va ichkuchi yigitlari anga musohib (sharik – H.A) bo'lur erdilar. Bu jihatdin alardin nohamvor (no'rin) maosh (hatti-harakat) va beandom atvor (xunuk fe'l) zohir bo'lur erdi. Hazrati Mirg'a ma'lum bo'lg'och, oni o'z suhbatidin mahrum qilib xonaqohdin ixroj qildilar va

buyurdilarkim, hujrasini buzub tufrog'in tashqari tashlasinlar. U mahalda Hofizi Sa'd bu g'azalni ayttkim, bu matla' ul g'azaldindur:

Maro dar olami rindi barasva alam kardi,
Dilam burdiyu jonamro nadimi, sad nadam kardi.

Va andin so'ngra Hofiz mardud bo'lub, mulozamat davlatig'a musharraf bo'la olmadi...(Majolisun-nafois" 12-bet) Baytning ma'nosi: "Meni rindlik olamida rasvolikning nishonasi qilding, dilimni olib, jonimni yuz nadomatga qo'yding" – "Majolisun-nafois", izohlar, 216-bet)

Bu parcha orqali Navoiy ustozning o'ta talabchanligini, shogird ustozga mos bo'lishini, bekorchi hoy-u havaslardan tiyilmog'i, xalqimizda mavjud maqoldagi kabi "Do'sting kimligini aytsang, sening kimligingni aytaman" deganlaridek o'ziga munosib do'st tanlamog'i lozimligini uqtirgan. Shaharning ichkuchi va axloq-atvori yomon kishilari bilan do'st tutingani uchun suhbatidan ham mahrum etib, xonaqohdan haydaydi va u o'tirgan hujraning tuprog'ini tashqariga tashlaydilar. Bu voqea orqali tolibi ilm ustoziga monand barchaga ibrat bo'ladigan, ko'nglida iymon nuri bo'lgan uyg'oq yurakli inson bo'lishi kerakligi uqtirilgan.

"Mavlono Sharafuddin Ali Yazdiy-Mavlononing sohibkamollig'i olam ahli qoshida musallamdur. Shohrux Sulton buzug'lig'ida faqirning volidi jamoati kasir bila ro'zg'or havodisi fitnasidin Xurosondin qochib, Iroqqa borurda Taftg'akim Mavlononing muvalladidur, yarim kecha yetib tushdilar. Ittifoqo manzil alarning xonaqohi eshikida voqe' erdi, tong otqonda, andoqkim, o'yuni atfol da'bi bo'lur, ul jamoatning atfoli ul xonaqohg'a o'ynag'ali kirdilar va faqir ham alar bila erdim, taxminan olti yoshimda bo'lg'ay erdim va Mavlono bir rahbada o'lturub ermishlar, tushgan jamoatning kayfiyatini ma'lum qilmoq uchun atfoldin birini tiladilar. Faqir alar sori borurg'a muvaffaq bo'ldum. Har nekim so'rdilar javob aytdim. Tabassum qilib tahsin qildilar, dag'i so'rdilarkim, maktabga boribmusen? Dedimkim: boribmen. Dedilarkim:kim ne yergacha o'qibsen? Dedimki:"taborak" surasig'acha. Dedilarkim:bu jamoat atfoldin biz tilaganda, sen kelib biz bila oshno bo'ldung, sening uchun fotiha o'quli deb o'z fotihalarig'a musharraf qildilar. Hamul zamon faqirning volidi va ul xayl ulug'lari kelib, Mavlono xizmatida anvori niyozmandlig'lar qilg'ondin so'ngra, faqirg'a andoq shuur hosil bo'ldi angakim, "ne kishi erkandurlar".("Majolisun-nafois", 31-bet)

"Ulug'lar duosi qabul bo'ladi" deganlaridek, Sharafiddin Ali Yazdiy Navoiyni duo qiladi. Navoiyning bilimdonligi, odobli ekanligi ul zotni mamnun etib, unga oq fotiha beradi. Shu o'rinda, ustozlar duosining amalga oshishini, ularning o'zlari kabi tilaklari ham buyuk bo'lishini yana bir bor anglaysiz. Ammo ana shunday insonlarning ko'nglini og'ritish, ranjitish katta gunoh ekanligini Hofizi Sa'd voqeasi orqali angladik. U qayta ustozning lutflariga musharraf bo'la olmadi.

"Xoja Fazlulloh Abullaysiy-Samarqand akobiridindur. Faqih Abullays avlodidandur. Fiqhda ani Abu Hanifai Soniy derlar erdi... Sayid Sharifning shogirdi erdi va Sayid o'z xatlari bila ulumi dars ayturg'a ijozatnomalar aning uchun bitib erdi. Faqir ikki yil alarning qoshida dars o'qib erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, "farzand" der erdilar...("Majolisun-nafois", 33-bet)

Bu parchada Fazlulloh Abullaysiyning o'zi ham yaxshi ustoz-shogird bo'lganligi, uning o'z shogirdini (xususan Navoiyni) farzandidek ko'rishi, hatto uni farzand deb atashi ifodalangan. Ustoz ko'ngli bir ulkan daryodurki, undan iqtidorli shogird ko'p manfaat olishi mumkin. Har bir shogirdiga ham ustozga munosib bo'lishni Alloh nasib aylasin.

"Mavlono Abdusamad Badaxshiy ham Badaxshondindur.Sulton Abu Said Mirzo zamonida Hiriya keldi. Podshoh anga o'z tarixin buyurdi. Masnaviygo'y va musannif kishi erdi. Bir baytida tajnis xayol qilib, qofiyasin g'alat qilib erdi, faqir ani voqif qilg'ach, filhol muttanabbih bo'ldi va izhori minnatdorlig' ham qildi va bu ish aning bila faqir orasida oshnoliqqa sabab bo'ldi..." ("Majolisun-nafois", 44-bet)

Ustozning xatosini aytish, ko'rsatish shogird uchun nihoyatda mushkul ish. Ustoz otadek ulug' zotki, bu insonga hurmatsizlik qilish nihoaytda mushkul. Oqil shogird bo'lmish Navoiy ustozning xatosini, baytdagi nuqsonini shunday tushuntirib beradiki, bu jarayon ularning orasida oshnoliqqa (do'stlikka) sabab bo'ladi.

"Mavlono Qabuliy-faqir kishi erdi..." deb boshlanuvchi xotirada ("Majolisun-nafois", 52-bet) ushbu shoirning vasiyatiga ko'ra devonini Navoiyga yetkazishlarini hamda o'lgandan so'ng Sodoti

Musrih qabristoniga dafn qilishni vasiyat qilingani aytiladi. Navoiy mazkur vasiyatni shogirdga qilingan vasiyatdek qabul qilib, uni to'liq bajaradi

Insonga butun boshli hayot haqida, umr haqida, dunyo ilmlari haqida bilim bergan ustoz shunday ulug' zotki, u zotning vasiyatini bajarish shogird uchun ham farz, ham qarzdir. Yashashdan ma'noni, dunyoni anglashni o'rgatgan insonni so'nggi manzilga kuzatish, tuganmas boyligi bo'lmish asarlarini kelajak avlodga yetkazish nihoyatda savobli va kishini ikki dunyo saodatiga yetaklaydigan vazifadir.

Tazkirada Mavlono Binoiyni ko'p qobiliyatli ekani aytiladi, ayni damda biron-bir sohada kamolotga erishmay, har doim ishni chala tashlab ketishini ta'kidlab o'tadi. Buni "Ammo mu'jib va mutasavvirlik'din el ko'ngliga maqbul bo'lmadi" ("Majolisun-nafois", 74-bet). Ya'ni takabburligidan – manmanligidan elga maqbul bo'lmadi, - deydi. Sababi "chun piri va murshidi yo'q erdi, o'z boshicha qilg'oni uchun hech foyda bermadi" (74-bet).

Bu voqeani o'qiganingizdan xalqimizning "Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar" degan hikmati yodingizga keladi. Avval tahsil olgan, so'ng xatga ishq paydo qilgan Binoiy bu sohalarda o'ziga ustoz tanlamaganligi uchun ilm yo'lida chekkan qiyinchiliklari xalqqa maqbul bo'lmaydi.

"Mavlono Hoji Muhammad Mashhaddindur. Ko'prak avqot bu faqir bila musohibdur va farzand o'rnig'adur, balki andin azizroq. Axloqda malakiydur, bashar surati bila kelgan va atvorda farishtadur, inson hay'atida zuhur qilg'on. Ta'bi sofiy va tafakkuri barcha diqqatlarga vofiy. Zehni mushkulkusho va taammuli funun ishkoli'ga raso. Ba'ze mahal biror nazm dag'i andin bosh urar." ("Majolisun-nafois", 124-bet)

Bu parcha orqali Navoiyning naqadar bag'rikeng ustoz bo'lganligini, shogirdlarini farzand o'rnida ko'rishini anglaysiz. Ustoz ota kabi ulug' bo'lganidek shogird ham farzand maqomidadir. "Navoiy har bir shoir ijodiga tamomila konkret yondashadi, ularning yutuq va kamchiliklarini ko'rsatibgina qolmay, genial san'atkor sifatida yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatib ketadi, boshqacha aytganda, qanday yozish kerak edi degan savolga javob beradi. (Suyima G'aniyeva. Alisher Navoiy. 131-bet) Pirovardida, "Navoiy merosi – yaxlit bir adabiy voqelik, bebaho ma'naviy xazina. Va yana muhimi shundaki, shoirning o'lmas gumanizm bilan ko'kargan hayotbaxsh g'oyalari dunyoviy asarlarida qanday porlab turgan bo'lsa, tasavvufiy asarlarida ham shunday kuch bilan nur taratib turadi." [6. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. 1996. 165-bet].

Muammoning yechimi – xulosasi: Alisher Navoiyning "ustoz-shogirdlik" masalasida quyidagicha qat'iyatlariga guvoh bo'ldik:

1. Alisher Navoiy mashhur kishilarning "ustoz-shogird" an'alariga rioya qilib, kamolotga erishganlarini ta'kidlaydi.
2. O'zi ham tazkirada e'tiborli, zukko va hozirjavob ustoz (murshid) hamda qobil shogird qiyofalarida ko'rinadi.
3. "Ustoz-shogird" an'anasi doirasida Navoiyni nuktadon, keng bilimli adabiyotshunos, nazariyotchi olim sifatida ham tasavvur qilish mumkin. (Suyima G'aniyeva)
4. Tazkirada Navoiyning insonparvarligi, odamiyligi ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бертельс Е. Э. "Навоий". (И. Мирзаев таржимаси). "Тафаккур қаноти". Т. 2015. – 372 б.
2. Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. Т. ЎзССР ФА нашриёти. 1959. 196 б.
3. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Ўн учинчи том. "Мажолисун-нафоис". Т. Фан. 1997. – 284 б.
4. Ғаниева С. Алишер Навоий. (Ҳаёти ва ижоди). Т. Фан. 1968. – 148 б.
5. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: Порсо Шамсиев, С. Иброҳимов. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Т. 1972. – 784 б.
6. Комилов Н. Тасаввуф. "Ёзувчи" нашриёти. Т.: 1996. – 272 б.

7. Гулямова, Г. (2020). ИЗУЧЕНИЕ ГИПОНИМИИ И СИНОНИМИИ ЮРИДИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В УСЛОВИЯХ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ. Review of law sciences, (2).
8. Bazarova, N., Gulyamova, G., Ziyamukhamedova, S., & Rasulmuhamedova, D. (2019). The basis of the word “heart” to become a poetic image. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 11(7), 982-991.
9. Gulnora, G. (2019). TRANSFORMATION METHOD AT TRANSLATION OF LITERARY TEXT. Сўз санъати халқаро журнали, 1(5).
10. Yakubovna, G. G. (2019). RELATIONSHIPS OF LEGAL TERMS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(11).
11. Gulyamova, G. Y. (2019). Legal Thesaurus–Factor Ensuring Terms Monosemanticity. Eastern European Scientific Journal, (1).